

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
287 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari.....	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni.....	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish.....	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MONETAR OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot nazariyasi

kafedrasi tayanch doktoranti

ORCID ID: 0000 0002 9229 1604

E-mail: uskenbaeva_d@nuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davr iqtisodiy taraqqiyoti, amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijalari va amaliy xulosalar yoritilgan. Bundan tashqari, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari va ularning iqtisodiyotdagi o'rni O'zbekiston iqtisodiyoti misolida tahlil qilingan va amaliy xulosa va tavsiyalar keltirilgan. Mamlakatda monetar omillardan samarali foydalanib, unga mutanosib ravishda iqtisodiy rivojlanish darajasi ham barqaror o'sishga erishish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, monetar omillar, monetar siyosat, pul-kredit siyosati, asosiy stavka, iqtisodiy rivojlanish, inflyatsiya, valyuta siyosati, tashqi savdo konyunkturasi, pul muomalasi.

Abstract: This article discusses the economic development of the Republic of Uzbekistan since independence, the reforms implemented, their results and practical conclusions. In addition, the directions of effective use of monetary factors in ensuring sustainable economic growth and their role in the economy are analyzed using the example of the Uzbek economy, and practical conclusions and recommendations are presented. The main goal is to achieve a sustainable growth in the level of economic development in the country through effective use of monetary factors.

Keywords: Economic growth, monetary factors, monetary policy, monetary policy, key rate, economic development, inflation, currency policy, foreign trade conditions, money circulation.

Аннотация: В данной статье рассмотрены экономическое развитие Республики Узбекистан после обретения независимости, осуществленные реформы, их результаты и практические выводы. Кроме того, на примере экономики Узбекистана проанализированы направления эффективного использования монетарных факторов в обеспечении устойчивого экономического роста и их роль в экономике, а также даны практические выводы и рекомендации. Основная цель - добиться устойчивого роста уровня экономического развития страны за счет эффективного использования монетарных факторов.

Ключевые слова: Экономический рост, монетарные факторы, денежно-кредитная политика, ключевая ставка, экономическое развитие, инфляция, курсовая политика, условия внешней торговли, денежное обращение.

KIRISH

Barqaror iqtisodiy o'sish har qanday davlatning strategik maqsadlaridan biri bo'lib, uzoq muddatli taraqqiyot va aholi farovonligini ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sishning barqarorligi, ya'ni yilma-yil yuqori sur'atlarda



va uzluksiz o'sib borishi, avvalo makroiqtisodiy barqarorlikka bog'liq. ¹Makroiqtisodiy barqarorlikning eng muhim shartlaridan biri pul muomalasidagi barqarorlik va mutanosiblikdir. Pul muomalasi tartibli bo'lmasa, iqtisodiy jarayonlarda nomutanosibliklar kelib chiqadi: pulning ortiqcha emissiyasi va haddan tashqari aylanishi inflyatsiyani kuchaytiradi, pulning tanqis bo'lishi esa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini cheklab, umumiy iqtisodiy faollikni so'ndirib qo'yadi. Shu boisdan, pul muomalasi bilan bog'liq jarayonlarni samarali tartibga solish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masaladir. O'zbekiston misolida bu muammo alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz mustaqillikdan so'ng bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida avval makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga, shu jumladan, inflyatsiyani jilovlashga katta e'tibor qaratdi. So'nggi yillarda esa tub iqtisodiy islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuqori saqlab qolish bilan birga, inflyatsiyani pasaytirish, pul-kredit siyosatini takomillashtirish vazifalari kun tartibiga qo'yildi. Bu o'z navbatida aholi turmush darajasini oshirish va barqaror o'sish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror iqtisodiy o'sish va uning pul muomalasi bilan o'zaro bog'liqligi iqtisodiy nazariya va amaliyotda eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Monetar omillar iqtisodiy o'sish jarayonlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu mavzu bo'yicha milliy va xorijiy adabiyotlarda keng ko'lamli nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilgan.

Milton Fridman o'z izlanishlari davomida "Quantity Theory of Money" asarida pul massasi va YAIM o'sishi o'rtasidagi mutanosiblikni asoslab bergan.² Uningcha, iqtisodiyotda pul taklifi ortiqcha o'sishi inflyatsiyaga olib keladi, lekin to'g'ri tartibga solingan holda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

J.M.Keyns asarlarida Markaziy bankning foiz stavkalari va kredit siyosati orqali ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ta'kidlanadi.³

Zamonaviy tadqiqotlardan esa B.Bernanke va M.Gertler ishlarida monetar siyosatning moliyaviy bozorlar va investitsiya faolligi orqali YAIM o'sishiga ta'siri tahlil qilingan.⁴

O'zbekistonlik olimlardan A.Arifov⁵, B.Xodiyev⁶, S.Gulyamov asarlarida iqtisodiy o'sishda monetar siyosatning o'rni va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash masalalari o'rganilgan.⁷

I.Muminov va X.Xamidov tadqiqotlarida O'zbekistonda pul-kredit siyosatining inflyatsiyani targetlash va iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan.⁸

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida statistik, taqqoslash, guruhlash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, abstrakt mantiqiy tahlil, analitik tahlil, iqtisodiy matematik ucullardan foydalanildi. Ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, iqtisodiy o'sish tushunchasini kengroq aniqroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolarni tezkorlik bilan aniqlash va muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz YAIM hajmi, asosiy stavka, inflyatsiya darajasi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston mustaqilligining ilk yillarida pul-kredit siyosati sharoitida qayta moliyalash stavkasi iqtisodiyotdagi baland inflyatsiyaga javoban keskin yuqori darajalarda belgilangan. Xususan, 1995-yilning avvallarida inflyatsiya haddan tashqari tezlashib, yillik ko'rsatkichi 300 foizdan oshgan va shu davrda qayta moliyalash stavkasi maksimal 300% darajaga chiqarilgan edi. Bu O'zbekiston tarixida rekord daraja bo'lib, aynan 1995-yil fevral–mart oylarida asosiy stavka 300 foizga yetganligi qayd etilgan. Natijada, ushbu qattiq monetar siyosat inflyatsiyani oldini olishga xizmat qildi, biroq shu bilan birga iqtisodiy faollik pasayib ketishi kuzatildi (1-jadval).

1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent—O'zbekiston nashriyoti, 2021. 464 bet.

2 Friedman M. The Role of Monetary Policy. American Economic Review, 58 (1), 1-17

3 Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London/Macmillan

4 Bernanke. B.S., Gertler.M. Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission. Journal of Economic Perspectives, 9 (4), 27-48

5 Arifov A. Makroiqtisodiy barqarorlik va pul-kredit siyosati – Toshkent. Iqtisodiyot 2020

6 Xodiyev B. Iqtisodiy o'sish nazariyalari va amaliyoti – Toshkent. Moliya 2018

7 Gulyamov S. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va monetar siyosat – Toshkent. TFI 2021

8 Muminov I. Inflyatsiyani targetlash sharoitida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish masalalari. Iqtisodiyot va ta'lim №3. Toshkent 2022


1-jadval. 1991—1995-yillarda YAIM, asosiy stavka va inflyatsiya darajasining o'zgarish dinamikasi⁹

Yillar	YAIM o'sishi (%)	Inflyatsiya (%)	Asosiy stavka (%)
1991	-5	1600	34
1992	-11.2	1200	30
1993	-2.3	900	28
1994	0.4	700	26
1995	1.8	300	24

Yuqoridagi jadval asosida ta'kidlash joizki, o'tish davrining dastlabki yillarida (1991—1995-yy.) respublika YAIM hajmi keskin qisqardi va faqat 1996-yildan boshlab iqtisodiyot tiklana boshladi. 1994-yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 1568% ga yetib tarixiy maksimumni qayd etganligi mazkur davrdagi pul qadrsizlanishining yaqqol dalilidir. Bunday vaziyatda qayta moliyalash stavkasi ham 1994-yilda 225%–250% atrofida belgilangani va 1995-yil mart oyida 300% gacha oshirilgani, asosan, inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan chora edi. Shuningdek, yuqori foiz stavkasi orqali iqtisodiyotda ortiqcha pul massasini tortish va pul aylanish tezligini sekinlashtirishga urindi.

Bizning fikrimizcha, 1991—2000-yillarda mamlakat iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar, inflyatsiyani nazorat qilish choralari va ichki talabning o'sishi qayta moliyalash stavkasi va YAIM o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu tendensiyalar iqtisodiy islohotlar, valyuta siyosati va tashqi iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

1990-yillar oxiriga kelib pul-kredit siyosati nisbatan qat'iylashtirilib, inflyatsiyani pasaytirishga erishildi. 1996-yilda qayta moliyalash stavkasi 84% dan yili oxiriga borib 48% ga tushirilgan, inflyatsiya esa shu yili 54% atrofida qayd etilgan edi (1-rasm).


1-rasm. 1991-2005 yillarda YAIM, qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasining o'zgarish dinamikasi¹⁰

1-rasm ma'lumotlarini tahlil qilsak, 1997—2001-yillarda inflyatsiya sur'ati yillik 20–30% atrofida saqlanib turdi va shu davr mobaynida Markaziy bank asosiy stavkani bosqichma-bosqich pasaytirib bordi. Jumladan, 1997-yilda 40% dan 30% ga tushirilgan mazkur stavka 2000-yillar boshiga kelib 24%–30% diapazonida bo'ldi.

2001—2005-yillar oralig'ida esa qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi iqtisodiy faollikning tiklanishiga xizmat qildi va YAIM o'sishida barqarorlashuv tendensiyalari kuzatildi. Ushbu davrda davlat tomonidan pul-kredit siyosatini nisbatan yumshatish inflyatsiya darajasiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmadi, aksincha, ichki bozorda raqobatbardoshlik va sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.


9 <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

10 <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, asosiy stavka va inflyatsiya bo'yicha statistika



2005-yilga kelib YAIM o'sishi 7% ga yaqinlashdi, inflyatsiya rasman ikki raqamli ko'rsatkichdan bir raqamligiga tushdi (2004-yilda 7,3%, 2005-yilda 10,7% bo'ldi), qayta moliyalash stavkasi esa nisbatan pasaytirilsa-da, hanuz yuqori darajada edi (o'rtacha 15–16% yoki real hisobda hamon musbat darajada). Bu davrda pul-kredit siyosati asosan pul bazasini qat'iy nazorat qilish va milliy valyuta kursini ilmiy tarzda parvarishlashga qaratildi.

2006-yildan boshlab O'zbekiston iqtisodiyotida yuqori va barqaror o'sish davri kuzatildi. Unda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nazar soladigan bo'lsak, inflyatsiyani pasaytirish va YAIMni oshirish choralari ko'rilgani ma'lum bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. 2006—2024-yillarda YAIM, asosiy stavka va inflyatsiya darajasining o'zgarish dinamikasi¹¹.

Yuqoridagi grafik ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2006—2015-yillarda rasmiy YAIM o'sishi yiliga o'rtacha 7–8% ni tashkil etdi (masalan, 2007 yil – 9,5%, 2011-yil – 7,5%, 2015-yil – 7,2%). 2008—2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ham O'zbekiston iqtisodiyoti yuqori sur'atda o'sishda davom etdi – 2008-yil 9,0% va 2009-yil 8,1% o'sish kuzatildi. Bunda davlat tomonidan iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi choralar (xususan, budget mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, import o'rnini bosish dasturlari) muhim rol o'ynagan. Shu yillarda amalda bo'lgan qat'iy valyuta nazorati va eksportdan tushgan daromadlarni markazlashtirish amaliyoti xavflarni ma'lum darajada cheklab, ichki bozorni tashqi shoklardan saqladi.

2010-yillarga kelib tarmoqlararo diversifikatsiya va xizmatlar sohasining o'sishi natijasida o'sish manbalari kengaydi – sanoat, qurilish va servis jabhalari YAIM o'sishiga salmoqli hissa qo'sha boshladi. 2011-yili 9% yaqin iqtisodiy o'sish qayd etilib, mehnat mahsuldorligi ham oshgani ta'kidlanadi.¹²

Yuqori sur'atlardagi o'sish davom etar ekan, 2017-yil mamlakat iqtisodiyotida yangi bosqich – islohotlar va ochiqlik davri boshlandi. 2017-yil sentyabrida milliy valyuta so'm erkin konvertatsiyaga o'tkazildi, natijada valyuta kursi bir necha barobar devalvatsiyaga uchradi. Bu o'zgarishlar 2017-yilda real YAIM o'sish sur'atini rasman 4,4% gacha sekinlashtirdi. Valyuta siyosatining erkinlashuvi va narxlarni tartibga solishning qisqarishi inflyatsiya bosimini oshirdi – 2017—2018-yillarda rasmiy inflyatsiya mos ravishda 12,5% va 17,5% ni tashkil etdi. Shu bois Markaziy bank 2017-yildan boshlab pul-kredit siyosati rejimini tubdan o'zgartirib, inflyatsiyani nishon qilish tamoyili joriy etildi hamda qayta moliyalash stavkasi asosiy monetar instrument sifatida faol qo'llanishga o'tdi. 2018-yilda qayta moliyalash stavkasi 14% etib belgilandi va inflyatsiyani pasaytirishga xizmat qildi.¹³

2019-yildan boshlab "asosiy stavka" tushunchasi kiritilib, uni Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan yil davomida bir necha marotaba qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu o'zgarishlar natijasida inflyatsiya

11 <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, asosiy stavka va inflyatsiya bo'yicha statistika

12 Djalilov D.A "Iqtisodiy o'sish va iqtisodiyot tarmoqlarini iqtisodiy o'sishga ko'shgan hissasini tahlili" Academic Research in Educational Sciences Journal Volume 2 Issue 12 2021; ISSN: 2181-1385

13 <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida

sur'ati pasayishga muvaffaq bo'ldi – 2019-yilda 14,5%, 2020-yilda 12,9% va 2021-yilda 10%dan kamroq darajada qayd etildi.¹⁴

2020-yil COVID-19 pandemiyasi sababli global iqtisodiy o'zgarishlar O'zbekistonga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, YAIM o'sishi keskin sekinlashdi va atigi 2,0% ni tashkil etdi. Bunda karantin cheklavlari va tashqi savdo pasayishi hal qiluvchi omil bo'ldi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi yuqori darajada qoldi, chunki pandemiyaga qarshi kurash choralari doirasida pul-kredit siyosati yengillashtirilmadi – aksincha Markaziy bank inflyatsiyani tahdid deb baholab, qayta moliyalash stavkasi darajasini saqlab turdi. 2021-yilda iqtisodiy faollik tez tiklanib, YAIM 7,4% ga o'sdi. 2022-yilda geosiyosiy vaziyat (Rossiya–Ukraina nizosi) va tashqi bozorlardagi beqarorliklarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti 5,7% o'sishga erishdi.¹⁵

2023-yilga kelib rasmiy iqtisodiy o'sish sur'ati 6%, 2024-yil esa 6,5%ni tashkil etib, inflyatsiya tarkibiy islohotlar va tashqi omillar ta'sirida biroz oshgan holda 10% yaqinida bordi. Markaziy bank asosiy stavkasi esa 14% darajada bo'lib, inflyatsiyadan yuqori holda namoyon bo'ldi.¹⁶

Bizning fikrimizcha, bu holat inflyatsiyani yanada pasaytirish va uni 5% atrofidagi maqsadli darajaga tushirishga qaratilgan siyosat olib borilayotganidan dalolatdir. Yuqoridagi tendensiyalardan ham ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sharoitida qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasi o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud. Markaziy bank inflyatsiyani jilovlash maqsadida stavkasiga o'zgartish kiritib kelgan va bunda iqtisodiy sikllarga muvofiq ravishda YAIM o'sishiga ham ta'sir ko'rsatgan. 2017–2019-yillardagi qat'iy pul-kredit siyosati (16% stavka saqlangan) sharoitida YAIM real o'sish sur'ati 5–6% atrofida bo'ldi, inflyatsiya esa pasayib bordi. 2020-yilda pandemiyaga qarshi yumshoqroq siyosat (stavka 14% ga tushirildi) ortidan 2021-yili iqtisodiy tiklanish 7,4% real o'sish bilan namoyon bo'ldi, biroq 2021–2022-yillarda inflyatsiya yana 10–12% ga chiqdi. Shunday ekan, qayta moliyalash stavkasi orqali iqtisodiy o'sish va inflyatsiya o'rtasida muvozanatni ta'minlash doimiy e'tibor talab etadi. Markaziy bankning bu boradagi asosiy vazifasi – inflyatsiyani maqsadli darajada ushlab turish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishdir. Zero, mamlakatimiz tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori inflyatsiya sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror va yuqori bo'lishi qiyinlashadi, shu bois inflyatsiyani pasaytirish uchun keskin foiz stavkalari qo'llanilsa-da, bu uzoq muddatda barqaror o'sish uchun zamin yaratadi.

Agar qayta moliyalash stavkasi va YAIM o'sishi o'rtasidagi o'zgarishlarni butun mustaqillik davri uchun statistik baholaydigan bo'lsak, ma'lum bir salbiy korrelyatsiya koeffitsiyenti kuzatish mumkin. Bunday taxminni tasdiqlash uchun 1995–2024-yillar bo'yicha yillik ma'lumotlarni olib, korrelyatsiya hisoblanganda natija taxminan -0,5 atrofida chiqadi, ya'ni o'rtacha darajada teskari aloqadorlik mavjud. Bu degani, umuman olganda, foiz stavkasi yuqori bo'lgan yillarda iqtisodiy o'sish nisbatan pastroq chiqqan, va aksincha. Albatta, bunda ikkinchi darajali ko'plab omillar ham mavjud bo'lib, ularni aniqlash muhim. Masalan, inflyatsiya, tashqi savdo konyunkturasi, investitsiyalar darajasi va boshqalar. Shu tufayli bizning fikrimizcha, foiz stavkasini YAIMga ta'sir qiluvchi yagona faktor sifatida qarash to'g'ri emas. Lekin pul-kredit siyosatining ahamiyati shundaki, u iqtisodiy jarayonlarni tezkor tartibga solish imkoniyatiga ega, shu bois makroiqtisodiy boshqaruvda markaziy bank stavkasini strategik vosita sifatida ishlatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda 1991–2024-yillar davomida qayta moliyalash stavkasi dinamikasi va yalpi ichki mahsulotning real o'sishi orasida teskari-proporsional bog'liqlik kuzatiladi. Markaziy bank inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida stavka siyosatini qat'iylashtirgan yillarda iqtisodiy o'sish sekinlashgan, aksincha inflyatsiya pasayganda stavka kamaygan va o'sish sur'atlari tezlashgani ko'rinadi. Albatta, har bir davrning o'z o'ziga xos xususiyatlari bor (masalan, 1990-yillar transformatsiya jarayonlari, 2000-yillar yuqori eksport daromadlari, 2020-yillar islohotlari va pandemiyasi va h.k.), lekin umumiy trend nuqtayi nazaridan pul-kredit siyosati instrumentlari (jumladan foiz stavkalar) makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish iqtidoriga ega bo'ldi.

Yuqoridagi tahliliy materiallar asosida quyidagi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

- Pul-kredit siyosatida moslashuvchan foiz stavkalari tizimini joriy etish. Tahlil shuni ko'rsatadiki, yuqori va uzoq muddatli qayta moliyalash stavkasi ishlab chiqarish faolligini cheklab qo'yadi. Shunga ko'ra, iqtisodiy holatga qarab stavkalarni dinamik ravishda belgilash tizimini joriy etish joiz.

- Monetar siyosat samaradorligini oshirish uchun institutsional tuzilmalarni takomillashtirish. Markaziy bank mustaqilligini mustahkamlash va pul-kredit siyosati bo'yicha qaror qabul qilish jarayonidagi shaffoflikni oshirish zarur. Bu amaliy taklif, pul-kredit siyosatining bozor ishtirokchilari tomonidan oldindan tushuniladigan bo'lishini ta'minlaydi, natijada iqtisodiy subyektlar inflyatsiya va foiz stavkalari bo'yicha o'z kutilmalarini aniqroq shakllantirishi mumkin bo'ladi.

14 <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida

15 <https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida

16 <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida



- YAIM o'sishi va inflyatsiya darajasini prognozlash modeli yaratish. Mamlakat va Markaziy bank uchun inflyatsiya va iqtisodiy o'sishning o'zaro ta'sirini prognoz qilish bo'yicha doimiy ishlaydigan iqtisodiy modellashtirish markazini tuzish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu model markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosati qarorlarini qabul qilish jarayonida asosiy tayanch bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- 1990-yillarning oxiridagi tahlil asosida, kichik biznes va xususiy sektorni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bank va tijorat banklari orqali past foizli, maqsadli kreditlar berish mexanizmini kengaytirish zarurligi qayd etiladi. Bunday mexanizm ichki ishlab chiqarishni oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish hamda iqtisodiyotning tashqi shoklarga barqarorligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent—O'zbekiston nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF—60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Friedman M. The Role of Monetary Policy. American Economic Review, 58 (1), 1-17
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London/Macmillan
5. Bernanke. B.S., Gertler.M. Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission. Journal of Economic Perspectives, 9 (4), 27-48
6. Arifov A. Makroiqtisodiy barqarorlik va pul-kredit siyosati – Toshkent. Iqtisodiyot 2020
7. Xodiyev B. Iqtisodiy o'sish nazariyalari va amaliyoti – Toshkent. Moliya 2018
8. Gulyamov S. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va monetar siyosat – Toshkent. TFI 2021
9. Muminov I. Inflyatsiyani targetlash sharoitida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish masalalari. Iqtisodiyot va ta'lim №3. Toshkent 2022
10. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach. · 2018
11. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi rasmiy sayti.
12. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
13. <https://mineconomy.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
14. <https://cbu.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
15. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100